

DIPLOMATIK VAZIYATLARDA TARJIMONNING NEYTRALLIK TAMOYILI

Isaqova Xurshidabonu Oybek qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O'zbek tili va Adabiyoti
universiteti, Tarjima nazariyasi va amaliyoti-ingliz tili yo'nalishi talabasi.*

Abstract: *This article examines the ethical issues encountered in diplomatic and political translation and analyzes the impact of the translator's responsibility, stance, and professional decision-making on international communication. It explores the linguo-pragmatic features of diplomatic discourse, layers of implicit meaning, strategies of caution, and ideological elements shaped by political context. The translation of political texts involves not only the transmission of information but also the reconstruction of positions, the adaptation of cultural codes, and the maintenance of a balance of interests.*

Key words: *diplomatic translation, political discourse, pragmatics, ideology, mediation, strategies of caution, political communication.*

Аннотация: *В статье рассматриваются этические проблемы, возникающие в дипломатическом и политическом переводе, а также анализируется влияние ответственности, позиции и профессиональных решений переводчика на международную коммуникацию. В работе изучаются лингвопрагматические особенности дипломатической речи, уровни скрытого смысла, стратегии осторожности и идеологические элементы, обусловленные политическим контекстом. Перевод политических текстов представляет собой не только передачу информации, но и процесс реконструкции позиций, адаптации культурных кодов и поддержания баланса интересов.*

Ключевые слова: дипломатический перевод, политическая речь, прагматика, идеология, посредничество, стратегии осторожности, политическая коммуникация.

Annotatsiya.

Ushbu maqola diplomatik va siyosiy tarjimada uchraydigan axloqiy muammolarni yoritadi hamda tarjimonning mas'uliyati, pozitsiyasi va kasbiy qarorlarining xalqaro kommunikatsiyaga ta'sirini tahlil qiladi. Maqolada diplomatik nutqning lingvopragmatik xususiyatlari, yashirin ma'no qatlamlari, ehtiyotkorlik strategiyalari va siyosiy kontekstdan kelib chiqadigan ideologik unsurlar ko'rib chiqiladi. Siyosiy matnlar tarjimasi nafaqat ma'lumot uzatish, balki pozitsiyalarni qayta shakllantirish, madaniy kodlarni moslashtirish va manfaatlar muvozanatini saqlash jarayonidir.

Kalit so'zlar: diplomatik tarjima, siyosiy nutq, pragmatika, ideologiya, vositachilik, ehtiyotkorlik strategiyalari, siyosiy kommunikatsiya.

Diplomatik va siyosiy nutqlar o'z tabiatiga ko'ra yuqori darajada nazorat qilingan, ehtiyotkorlik bilan tuzilgan va ko'pincha ko'p qatlamli ma'noga ega kommunikativ shakllardir. Ularni tarjima qilish jarayonida tarjimon til birliklarining yuzaki ma'nosidan ko'ra chuqurroq kontekstlarni — siyosiy manfaatlar, diplomatik odob, tarixiy fon, xalqaro munosabatlar dinamikasi — hisobga olishi zarur. Shunday ekan, diplomatik tarjima axloqiy jihatlari bilan ham ajralib turadi: tarjimon bir vaqtning o'zida ham til vositachisi, ham mas'ul pozitsiyaga ega kommunikatsion agent hisoblanadi.

So'zlarning haqiqiy ma'nosi va ularning tarixiy taraqqiyot yo'li qanday bo'lishidan qat'i nazar, ularning vujudga kelishi va keyingi ma'no taraqqiyoti uchun asos – bu motivatsiyadir [1, 781].

Siyosiy diskursda ishlatiladigan lingvopragmatik strategiyalar ko'pincha baholovchi leksika, noaniqlik, modal vositalar, muloyimlashtiruvchi iboralar va retorik

metaforalar orqali shakllanadi. Masalan, *“We express deep concern”* yoki *“We urge all parties to exercise restraint”* kabi iboralar diplomatik tarzda bosimni ifodalaydi. Ularning o‘zbekcha ekvivalenti *“chuqur tashvish bildiramiz”*, *“tomonlarni vazminlikka chaqiramiz”* tarzida yumshoq ohang bilan beriladi [2, 37]. Bunday iboralarda semantik noziklik juda kuchli bo‘lgani uchun tarjimon axloqiy jihatdan ham aniq, ham ehtiyotkor bo‘lishga majbur bo‘ladi. Birgina noto‘g‘ri modallik yoki haddan ortiq kuchaytirish butun pozitsiyani o‘zgartirib yuborishi mumkin.

Siyosiy matnlarni tarjima qilish jarayonida tarjimon ko‘pincha qator qarorlar qabul qiladi: axborotni qanchalik darajada so‘zma-so‘z yetkazish, qaysi joyda yumshatish, qaysi joyda kontekst qo‘shish, qanday qilib manba tilidagi ideologik signalni saqlagan holda uni madaniy jihatdan moslashtirish mumkin. Ingliz tilidagi *“breach of international obligations”* iborasini *“xalqaro majburiyatlarning buzilishi”* deb tarjima qilish aniq va bevosita baholovchi ohang beradi, lekin diplomatik sharoitda ba‘zan *“xalqaro majburiyatlarga to‘liq rioya etmaslik holatlari”* tarzida yumshatilgan variant qo‘llanadi [3, 106]. Bu esa axloqiy masala sifatida qaraladi: tarjimon manba matndagi baholovni aynan qanchalik darajada yetkazishi kerak?

Diplomatik tarjimada axloqiy masalalarning yana bir ko‘rinishi — tarafkashlik xavfi. Tarjimon ba‘zan ikki qarama-qarshi pozitsiya o‘rtasida turgandek bo‘ladi. Uning tovushi, intonatsiyasi, pauzasi, hatto leksik tanlovi ham bir tomonning manfaatini oshirib, boshqasini zaiflashtirib qo‘yishi mumkin. Shuning uchun professional diplomatik tarjimonlar o‘z nutqida neytrallikni qat’iy saqlash, provokatsion iboralarni yumshoq qayta tuzish, shaxsiy fikrga o‘rin bermaslik kabi axloqiy tamoyillarga tayanadi.

Diplomatik jarayonlarda tarjimon interaktiv pozitsiyada bo‘ladi: u nafaqat matnni tarjima qiladi, balki muzokara jarayonining ritmiga va psixologik holatiga ham ta’sir qiladi. Og‘ir vaziyatlarda — ziddiyatli bayonotlar, keskin tanqid, ayblov bildiruvchi iboralar paydo bo‘lganda — tarjimonning axloqiy roli yanada muhimlashadi [4, 84]. U keskinlikni oshirmaslik, taraflar o‘rtasidagi ishonchni

buzmaslik va nutqni diplomatik normalarga mos holda yetkazish bilan bog'liq axloqiy qarorlar qabul qiladi.

Xulosa qilib aytganda, diplomatik va siyosiy tarjima axloqiy jihatdan nihoyatda mas'uliyatli faoliyatdir. Unda tarjimonning lingvistik mahorati bilan bir qatorda axloqiy sezgirligi, madaniy bilimi, pragmatik hushyorligi va professional neytralligi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tarjima jarayonida kichik semantik siljishlar ham katta siyosiy talqinlarga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois diplomatik tarjimonlar tayyorlov jarayonida axloqiy me'yorlarga, diplomatik protokolga, nutqning pragmatik funksiyalariga va xalqaro muloqotning nozik jihatlariga alohida e'tibor qaratishlari zarur.

Adabiyotlar

1. Toshtemirovich A. D. TILSHUNOSLIKDA TOVUSHGA TAQLID (ONOMATOPOETIK) NAZARIYASI VA UNING AHAMIYATI //Hamkor konferensiyalar. – 2025. – T. 1. – №. 14. – C. 781-785.
2. Pöchhacker, F. *Introducing Interpreting Studies*. Routledge.
3. Hatim, B., & Mason, I. *The Translator as Communicator*. Routledge.
4. Mamarasulova, Gulnoz. "THE INFLUENCE OF ORIENTAL LITERATURE ON ENGLISH POETRY AND PROSE." *Nordic_Press* 8.0008 (2025).